



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar—iyul

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 25 235,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 135,8 % ni tashkil etdi.
- Toshkent shahrining jami xizmatlarda eng katta ulushni savdo xizmati egallagan 27,6 %.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xildir. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omildir

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlar xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, Toshkent shahrida 2018 yil yanvar—iyul oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 25 235,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining salmoqli hajmi savdo xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatilmoqda.

## Asosiy xizmat turlari bo'yicha xizmatlar hajmining solishtirilishi, mlrd.so'm




## 2018 yil yanvar—iyul oylarida Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

	Xajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar (jami)</b>	<b>25 235,8</b>	<b>113,3</b>
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2 663,1	118,5
Moliyaviy xizmatlar	6 183,5	135,8
Transport xizmatlari	3 133,0	113,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>	1 926,8	101,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	986,4	104,7
Savdo xizmatlari	6 964,3	101,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 124,8	102,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	934,8	103,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	443,6	116,5
Ijara xizmatlari	483,4	99,0
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	126,7	104,6
Shaxsiy xizmatlar	330,1	100,4
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	653,6	134,4
Boshqa xizmatlar	1 208,6	107,1

2018 yil yanvar—iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (135,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (134,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (116,5 %), transport xizmatlar (113,5 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarga oshdi.

### 2018 yil yanvar—iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarning yanada rivojlanishi, xizmatlarning yangi turlarini kengaytirilishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilanishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar—iyul oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (61,5 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'lovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

### 2018 yil yanvar—iyul oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush—savdo xizmatlari (27,6 %); moliyaviy xizmatlar (24,5 %); transport xizmatlari (12,4 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,6 %); ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (4,5 %); Yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,9 %) tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmati jadal rivojlanishi telekommunikasiya tarmoqlari, kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish milliy dasturlarining amalga oshirilishi, simsiz telefon aloqalarining o'sishiga, uyali aloqa abonentlari va Internet tarmog'iga jamoaviy ulanish joylari sonining ko'payishiga olib kelmoqda.

2018 yil yanvar—iyul oyida aloqa va axborotlashtirish xizmati o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,5 % tashkil etdi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatining umumiy hajmida salmoqli ulushni telekommunikasiya xizmatlari 77,3 % egallaydi. 2018 yil yanvar—iyul oyida telekommunikasiya xizmatining hajmi 2 058,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.



2018 yilning yanvar—iyul oyida moliyaviy xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,8 % tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida salmoqli ulushni sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar 87,8 % egallaydi.

### 2018 yil yanvar—iyul oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi




2018 yil yanvar—iyul oyida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmi 5 427,0 mlrd. so'mni tashkil qildi

### 2018 yil yanvar—iyul oyida moliyaviy xizmatlarning hajmi



Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari (27,6 %) eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida ulgurji savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi - 50,0%



## 2018 yil yanvar—iyul oylarida Toshkent shahri bo'yicha tumanlar kesimida xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

	Xajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>25 235,8</b>	<b>113,3</b>
tumanlar:		
Uchtepa	1 337,2	102,5
Bektemir	674,0	105,6
Yunusobod	4 754,3	121,2
Mirzo Ulug'bek	2 566,8	112,9
Mirobod	3 758,9	112,9
Shayxontoxur	2 605,0	107,9
Olmazor	1 272,6	103,9
Sergeli	1 555,8	124,2
Yakkasaroy	1 673,2	106,0
Yashnobod	2 538,0	129,8
Chilonzor	2 348,3	107,3
Tumandan tashqarida	151,8	82,5


Tumanlar o'rtasida eng katta hajm Yunusobod (4 754,3 mlrd.so'm) va Mirobod (3 758,9 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Bektemir (674,0 mlrd.so'm) va Olmazor (1 272,6 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.



Tumanlar o'rtasida Yunusobod tumani etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Yunusobod tumaning ulushi 18,3 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida tumanlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Mirobod (14,9 %), Shayxontohur (10,3 %), Mirzo Ulug'bek (10,2 %) va Yashnobod (10,1 %) tumanlari tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida Toshkent shahar bo'yicha jami xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi (jami hajmga nisbatan), %**



Tumanlar o'rtasida eng past ulushlar Bektemir (2,7 %), Olmazor (5,0 %), Uchtepa (5,3 %) va Sergeli (6,2 %) tumanlarga to'g'ri keladi .

**Toshkent shahar**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: Aleshunina O.V.

(71) 230-88-15